

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti rektori

O.S.H. Bazarov
06 2024-yil



Ro'yatiga olingandi № 05/03/017
2024-yil

“INNOVATSION IQTISODIYOT”

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi: 310000 - Ijtimoiy va xulq-atvorga moyil fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

QARSHI – 2024-yil

Fan/modul kodi TAXAT16	O'quv yili 2024-2025	Semestr 5	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
I.	90	90	180
II.	I. FANNING MAZMUNI		

Ushbu fan mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni innovatsion taraqqiyot dasturini amalga oshirishdagi roli, innovatsion rivojlanishini belgilovchi omillari, innovatsion faoliyatni boshqarishning muhim muammolari, sanoat korxonalarida ilmiy loyihalarning mohiyati va ularni ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion taraqqiyotni ta'minlovchi omillar, sanoatda innovatsion taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchlar, barqaror iqtisodiy yuksalishni ta'minlovchi omillar, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning prinsiplari xususiyatlari va yo'nalishlari kabi masalalarni qamrab oladi.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tekzor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilg'irlashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalariga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Sanoatni innovatsion rivojlantirishda mavjud iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga og'li munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Mehnatni bilimlar bilan almashirish talabalarga ajralib turadigan yangi faollik turiga almashirish orqali ma'naviy yo'naltirilgan faoliyat-intelektual faollikni oshirishga xizmat qiladi.

"Innovatsion iqtisodiyot" fani umumkasbiy fani hisoblanib, III, V va VI semestralarda o'qitiladi. "Innovatsion iqtisodiyot" fanini o'zlashtirishda talabalar "Iqtisodiyot nazariyasi", "Sanoat iqtisodiyoti", "Mikroiqtisodiyot", "Iqtisodiy matematik modellari", "Marketing", "Management" fanlaridan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. "Innovatsion iqtisodiyot" fani "Institutsional iqtisodiyot" va "Biznes rejalashtirish" fanlarini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimni, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiyot eiganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

Sanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlar va korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishning samarali usullarini, tarmoqlar o'rtasidagi uzviy aloqalarning rivojlanish tendentsiyalarini; ilm-fanga oid iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini; mamlakat sanoat tarmoqlaridagi innovatsion jarayonlardagi mavjud

muammolar va ularni yechimini aniqlashni, O'zbekiston Respublikasining sanoat innovatsion siyosatining mohiyatini bilishi va ulardan foydalana olishi;

Talaba innovatsion iqtisodiyotga oid iqtisodiy statistik va hisobot ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, milliy tarmoqlar, hududiy va korxonada iqtisodiyotini o'zaro aloqadorligini tushunish ko'nikmalarga ega bo'lishi;

Talaba sanoat integratsiyasi, mamlakat sanoatining tarkibi, uning innovatsion rivojlanib borishi, sanoat tarkibiga kiruvchi tarmoqlarning innovatsion rivojlanishini hozirgi holati, ilmiy-innovatsion faoliyatning qonuniy va normativ huquqiy asosini bilish va qo'llash bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ijtimoiy soha iqtisodiyotini ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tamoyillarini o'rgatishdan iborat.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu: INNOVATSION IQTISODIYOT FANIGA KIRISH.

Innovatsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati. Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasi. innovatsion jarayonlarning o'sishi ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish kontsepsiyasining xususiyatlari. Innovatsiyaviy loyihani davlat tomonidan tartibga solinishi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion loyihalarning ahamiyati.

2-Mavzu: INNOVATSION SIYOSAT VA INNOVATSION EKOSISTEMA.

Innovatsion siyosatning xususiyatlari, asosiy yo'nalishlari va amalga oshirish bosqichlari. Innovatsion faoliyatning me'yoriy-huquqiy asoslari. Innovatsiya strategiyasining mohiyati. Korxonalarda innovatsiya strategiyasini shakllantirish. Ilg'or mamlakatlarda innovatsion faoliyatini o'rganish. AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, MDX va boshqa mamlakatlarni tajribalari. "Fan-innovatsiya-investitsiya-ishlab chiqarish" zarjiri eksperimental va amaliy ishlanmasi.

3-Mavzu. MILLIY INNOVATSIYA TIZIMI VA INNOVATSION TADBIRKORLIK.

Kichik biznes sohasida innovatsiyalarni moliylashtirish asoslari. Innovatsion tadbirkorlikni mamlakat innovatsiya faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati. mamlakatlarda innovatsion faoliyatdan iqtisodiy o'sishning bosh omili sifatida. Korxonalarda innovatsion marketing joriy etishning nazariy-uslubiy asoslari. Innovatsion marketing turlari va uning eksport amalyotiga joriy etish. Innovatsion marketing texnologiyalarini joriy etish muammolari. Korxonalarda eksport imkoniyatlarini kengaytirishda innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish yo'llari. Innovatsion marketingni joriy etish istiqbollari. Korxonalarni eksport faoliyatida innovatsion marketingni rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish.

4-Mavzu. INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA RAQAMLI IQTISODIYOT

Innovatsion faoliyat sohasidagi respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlari.

Innovatsiyaviy menejmentning g'arb tajribasi. Innovatsiyaviy imitatsiya strategiyasi. Mahsulot differentsiatsiyasi. Faol ITTKI strategiyasi. Davlat tomonidan korxonalarda innovatsiyaviy jarayonlar rivojlanishi. Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni tartibga solish. Innovatsiyaviy faoliyat mazmuni va xususiyatlari. Innovatsiyaviy faollikni rag'batlantirish mexanizmlari. Innovatsion menejment va texnologiyalar transferi. O'ra muddatli va uzoq muddatli strategiyalar. Axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalar.

5-Mavzu. ILMIY-TEXNIK MAXSULOTLAR BOZORI VA INNOVATSIYALAR DIFFUZIYASI.

Intellektual tovar, intellektual mulk va nomoddiy aktivlar. Intellektual mulk huquqi. Innovatsiyaviy loyihaning asosiy vazifalari. Texnologiyalar transferi bozorida innovatsiyalarni olib chiqish va amalga oshirish shakllari va usullari. Innovatsiyalar diffuziyasi. Ilmiy-texnik mahsulotlar bozorining tarkibi va asosiy elementlari. Bozor sharoitidagi investitsiyalash. Integral samara va innovatsiyalar rentabelligi indeksi. Texnologik konsorsiumlar. Texnologik jihatdan takomillashirilgan mahsulot. Intellektual mulk obyektlari. Tovar belgilari huquqiy himoyasini tashkil etish. Xalqaro shartnomalar va kelishuvlar.

6-Mavzu. INNOVATSIYALARNI MOLIJALASHTIRISH VA INVESTITSION TA'MINOT

Korxonalarda innovatsion loyihalarni moliya-lashtirish tizimini. innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlarning roli va xorij tajribasi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish xususiyatlari. Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalari va maqsadli loyihalar. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarning mohiyati va ahamiyati. Loyihani bajarish uchun xarajatlarni smetasi. Innovatsion rivojlanishini moliyaviy ta'minlash modellari. Jalb etilgan mablag'lar evaziga va qarz mablag'lari evaziga innovatsion faoliyatni moliyalashtirish. Innovatsiyaviy loyihalarning texnik tavsifliklari. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar.

7-Mavzu. INTELLEKTUAL KAPITAL VA BILIMLAR IQTISODIYOTI

Korxonalarda ilmiy-texnik mahsulotlar bozori. Intellektual kapital va intellektual mulkning mohiyati va tarkibiy tuzilishi. Tovar belgisi, korxon nomi va xizmat belgilari. Intellektual mulk huquqining tarkibiy qismlari. Intellektual mulkni tijoratlashtirish mohiyati va amalga oshirish bosqichlari va zarurligi. Intellektual mulkni yaratish, baholash, huquqiy muhofazani ta'minlash hamda ularni huquqiy asoslari. Intellektual mulk obyektlari. Iqtisodiy taraqqiyotda intellektual mulk roli. Intellektual mulkdan foydalanish huquqi. Internetdan tijorat maqsadlarida foydalanish.

8-Mavzu. INNOVATSION JARAYON VA FAOLIYATNI DIVERSIFIKATSIYALASH.

Korxonalarda innovatsion jarayon bosqichlari. Ilmiy-texnologik, innovatsion ishlanmalar, texnologiyalar va innovatsion faoliyat. Biznes-inkubatorlari, tajriba markazlari, ekspertiza markazlari. Innovatsion faoliyatning asosiy elementlari, mazmuni va tashkiliy tuzilmalari. Korxonalarni innovatsion faoliyatida fan-texnika. Korxonalarda innovatsion jarayonlarning tarmoq xususiyatlari. Korxonalarda

innovatsiyalarni amalga oshirish omillari. Innovatsiya turlari. Iqtisodiyot tarmoqlarida intellektual mulk. Innovatsiyaviy jarayonning asosiy bosqichlari. Innovatsion sikl sxemasi.

9-Mavzu. INNOVATSIYALARNI TIJORATLASHTIRISH VA TEXNOLOGIYALAR TRANSFERI

Korxonalarda ilmiy-texnik mahsulotlar bozori, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va texnologiyalar. Innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari hamda innovatsiyalarni rivojlantirish va davlat tomonidan tartibga solish. Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari. Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish. Ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish obyektlari, innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari. Innovatsion faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning elektrotexnika mahsulotlari. Tarmoqlar bo'yicha innovatsiya uchun xarajalar. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlarning roli. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning xorij tajribasi.

10-Mavzu. INNOVATSION INFRATUZILMA, TEXNOLOGIK PARKLAR VA TEXNOPOLISLAR

Korxonalarda innovatsion infratuzilma, fan-ta'lim va ishlab chiqarish tizimlarini integratsiyalash. Innovatsion infrastruktura shakllanish asoslari. Innovatsion infratuzilmaning subyektlari. Korxonalarda innovatsion jarayonni shakllarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Innovatsion infrastruktura shakllanishida innovatsiyaviy jarayonni samarali boshqarish. Innovatsion markazlar va texnoparklar. Innovatsiyaviy faoliyat rivojlanishining o'ziga xos tendentsiyasi. Texnopolislar va boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi parklar. Ilmiy, ilmiy-texnologik parklar va boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi parklar. FT rivojlanishi. Innovatsion infratuzilma va innovatsion salohiyat.

11-Mavzu. ILMIY-TADQIQOT LOYIHALARINI SHAKLLANTIRISH VA TARTIBGA SOLISH

Ilmiy-tadqiqot loyihalarni shakllantirish va tartibga solish. innovatsiyalarni qullab-quvvatlash, texnologik innovatsiyalar, marketing innovatsiyalari, narx, shartnoma. Loyihaviy moliyalashtirish tushunchasi va xususiyatlari. 1.2. Ilmiy va innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari. Loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlari va turlari. Xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar. Korxonalarda davlat tomonidan innovatsiyalarni moliyalashtirish. Innovatsiyalarga qaratilgan marketing. Strategik innovatsion marketing.

12-Mavzu. ILM-FAN, ILMIY FAOLIYAT, IXTIROCHILIK VA INNOVATSION FAOLIYATNI QO'LLAB-QUVVATLASH. INTELEKTUAL MULK HUQUQI VA PATENT SIYOSATI

Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini va ilg'or mamlakatlar innovatsion faoliyatini hamda kashfiyotlar, ixtirolar va patentlarni rasmiylashtirish. Davlat maqsadli fan-texnika dasturlari. Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. Innovatsiyaviy jarayon subyektlari. Innovatsiya diffuziyasi. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash. Ilg'or mamlakatlar innovatsion

faoliyati Amerika Qo'shmasi shtatlarida innovatsion rivojlanish. Milliy innovatsiya tizimini shakllantirish konsepsiyasi. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va patentlar.

13-Mavzu. INTELEKTUAL MULK HUQUQI VA PATENT SIYOSATI

Intellektual kapital, intellektual mulk huquqi va patent siyosati, ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalashning mohiyati va asosiy turlarini hamda ularning turkumlanishi. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va patentlar. Intellektual kapital va intellektual mulkning mohiyati va tarkibiy tuzilishi. Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashirish chora-tadbirlari. Intellektual kapital va intellektual mulkni boshqarish tizimi. Novatorlikni qo'llab-quvvatlovchi omillar. Korporativ boshqaruv novatorlarga nisbatan differentsiatsiya-lashgan yondashuv.

14-Mavzu. INNOVATSION MARKETING VA ELEKTRON TIJORAT

Korxonalarda innovatsion marketing turlari, innovatsion marketing texnologiyalarni va elektron tijorat, korxonalarda eksport imkoniyatlarini kengaytirish va uning innovatsion marketingi texnologiyalar. Innovatsion marketing tushunchasi va xususiyatlari. Marketing strategiyasi, bozorning tahlili va operativ marketing. Innovatsiyalar diffuziyasi: mohiyati, bosqichlari, korxonalarining innovatsion rollari. Biznes-rejaniing xalqaro shakli. Korxonalar tashkiliy-huquqiy shakli. Tavakkalchilikni baholash. Innovatsiyalar korxonalarining raqobatbardoshligi omili sifatida. «Raqobatbardoshlikni boshqarish. Strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish.

15-Mavzu. VENCHUR KAPITAL VA VENCHUR FONDRLAR

Korxonalarda vechur kapital va vechur fondlarni tashkil etilishi va faoliyatini boshqarishni, fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlarning roli va xorij tajribasi. Vechurli moliyalashtirish jarayoni tarkibi. Tavakkal-chilikli (vechurli) biznes. Eksplerentlar. Vechur firmalari. Vechurli moliyalashtirishning xorij tajribasi va zarurligi. Innovatsion iqtisodiyotda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda vechur kapitalning roli.

16-Mavzu. ITTKI (R&D) VA TIJORATLASHTIRISH

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarni (ITTKI,) ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalashning mohiyati va asosiy turlarini hamda ularning turkumlanishi. Biznes g'oyalari va ularni amalga oshirish. Ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishni me'yoriy-huquqiy asoslari. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish. Mahalliy hususiy va xorijiy investorlar. Korxonalarda fundamental va amaliy tadqiqotlar. Korxonalarda ilmiy-tadqiqot, tajriba – konstruktor ishlarining asosiy vazifalari. Ilmiy-tadqiqot, tajriba –konstruktor ishlarining asosiy tamoyillari. Innovatsion tashkilotning patent litsenziya faoliyati. Innovatsiyaviy faollikni rag'batlantirishning asosiy vazifasi. Ilmiy kashfiyotlarning asosiy turlari.

17-Mavzu. INNOVATSION TADBIRKORLIK VA INNOVATSION BIZNES

Innovatsion iqtisodiyot va xizmatlar bozorini va unga ta'sir etuvchi omillarni hamda innovatsion xizmatlar bozori strategiyasini shakllantirish yo'llari. Innovatsion kichik tadbirkorlikni rivojlanishning ahmiyati. Innovatsion

tadbirkorlikni mamlakat innovatsiya faoliyatini rivojlanishdagi o'rni va ahmiyati. Kichik biznes sohasida innovatsiyalarni moliyalashtirish asoslari. Innovatsion kichik biznes korxonalar salohiyatini aniqlash yo'llari. Innovatsion kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) korxonalar bozorini rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari. Hududlarda innovatsion kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) faolligini ta'minlovchi omillar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) korxonalarida novatorlik va yarqatuvchanlik holati.

18-Mavzu. INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlanishda davlat-xususiy sherikchilik innovatsion iqtisodiyotni rivojlanishning mohiyati va asosiy turlarini hamda ularning samaradorligi. Davlat-xususiy sherikligining mazmuni va mohiyati. Davlat-xususiy sherikligining mexanizmini samarali shakllantirishda davlat siyosati. Iqtisodiyotning turli sohalarda davlat-xususiy sherikligining amalga oshirilishi. Davlat-xususiy sherikchilikning asosi me'yori-huquqiy hujjatlar. Davlat-xususiy sherikchilikning asosiy prinsiplari. Davlat-xususiy sherikchilikning sifat va samaradorligi. Davlat-xususiy sherikchilikda innovatsiyalarni qo'llash. Davlat-xususiy sherikchilikning mexanizmlari. Davlat-xususiy sherikchilikda hamkorlik.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Innovatsion iqtisodiyot faniga kirish.
 2. Innovatsion siyosat va innovatsion ekosistema
 3. Milliy innovatsiya tizimi va innovatsion tadbirkorlik
 4. Innovatsion rivojlanish strategiyalari va raqamli iqtisodiyot
 5. Ilmiy-texnik maxsulotlar bozori va innovatsiyalar difuziyasi
 6. Innovatsiyalarni moliyalashtirish va investitsion ta'minot
 7. Intellektual kapital va bilimlar iqtisodiyoti
 8. Innovatsion jarayon va faoliyatni diversifikatsiyalash
 9. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferi
 10. Innovatsion infratuzilma, texnologik parklar va texnopolislar
 11. Ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirish va tartibga solish
 12. Ilm-fan, ilmiy faoliyat, ixtirochilik va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash. Intellektual mulk huquqi va patent siyosati
 13. Intellektual mulk huquqi va patent siyosati
 14. Innovatsion marketing va elektron tijorat
 15. Vechur kapital va vechur fondlar
 16. ITTKI (R&D) va tijoratlashtirish
 17. Innovatsion tadbirkorlik va innovatsion biznes
 18. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlanishda davlat-xususiy sherikchilik
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jinozilangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

<p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Korxonalarda innovatsiyani qo'llab-quvvatlash davri va ahamiyati 2. Korxonada innovatsiya faoliyatida iqtisodiy usullarning ahamiyati 3. Korxonalarda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari 4. Korxonalarda yangi tejamkor texnologiyalarni qo'llash holati 5. Korxonalarda innovatsion faoliyatning ilmiy-uslubiy asoslari 6. Korxonalarda innovatsiya faoliyatiga tizimli yondashuv 7. Innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar transferini rivojlantirish 8. Korxonada innovatsion faoliyatida iqtisodiy omillarning ahamiyati 9. Korxonalarda innovatsion faoliyatga kiritilgan investitsiyalar samaradorligi 10. Korxonalarda innovatsion texnologiyalar faoliyatini moliyalashtirish manbalari 11. Korxonalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari 12. Innovatsion tizimda malakali kadrlarni tayinlash va qayta tayyorlash tizimi 13. Innovatsion iqtisodiyotda xizmatlar bozorining asosiy faoliyati va shartlari 14. Innovatsion xizmatlar bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari 15. Innovatsion xizmatlar bozori faolligini rivojlantirish mexanizmini shakllantirish 16. Innovatsion siyosat va innovatsion loyihalari 17. Korxonalarda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi 18. Korxonalarda texnologik va marketing innovatsiyalari 19. Innovatsion texnologiyalar va ulardan korxonalarda foydalanish zarurati 20. Korxonalarda innovatsion texnologiyalar salohiyatini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar 21. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish modellari va indeksatorlari 22. Korxonalarda faol innovatsion-investitsion siyosat 23. Korxonalarda ilg'or mamlakatlar innovatsion faoliyatidan foydalanish 24. Fan-innovatsiya-investitsiya-ishlab chiqarish" zanjiri eksperimental va amaliy ishlanmalari 25. Korxonalarda innovatsion marketingni joriy etishning nazariy-uslubiy asoslari 26. Korxonalarda eksport imkoniyatlarini kengaytirishda innovatsion marketing texnologiyalardan foydalanish yo'llari 27. Innovatsion marketingni joriy etish istiqbollari 28. intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish 29. intellektual kapital va intellektual mulkning mohiyati va tarkibiy tuzilishi 30. intellektual mulkni tijoratlashtirishning mohiyati va amalga oshirish bosqichlari 31. intellektual mulk bozori parametrlari innovatsiyani tijorat potentsialini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish 32. Zamonaviy innovatsion strategiyalarning mohiyati va turlari 33. ilmiy kashfiyotlarning mohiyati va asosiy turlari 34. Innovatsion iqtisodiyotda menajment strategiyalari 35. Yangi mahsulot va texnologiyalarning bozorga kirish strategiyasi 36. Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish 37. Innovatsion marketing faoliyati samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar

<p>turkumi</p> <ol style="list-style-type: none"> 38. Innovatsiya bozorida marketing jarayonida raqobatchilar ta'sirini boshqarish 39. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi 40. Innovatsion loyihalarda tavakkalchilikning o'rni va ahamiyati 41. Zamonaviy innovatsion strategiyalarning mohiyati va turlari 42. Innovatsiya bozorida marketing jarayonida raqobatchilar ta'sirini boshqarish 43. Innovatsion texnologiyalarni amalga oshirishda klaster usullarni qo'llashning ahamiyati 44. Venchur fondlarni tashkil etilishi va faoliyatini boshqarish 45. Fundamental, amaliy, innovatsion loyihalarning xarajatlari va iqtisodiy samaradorligi <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, mustaqil ishlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mamlakatning xalqaro maydonidagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; - sanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlar va korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishning samarali usullarini, tarmoqlar o'rtasidagi uzviy aloqalarning rivojlanish tendensiyalarini; ilm fanga oid iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini; mamlakat sanoat tarmoqlaridagi innovatsion jarayonlardagi mavjud muammolar va ularni yechimini aniqlashni, O'zbekiston Respublikasining sanoat innovatsion siyosatining mohiyatini bilishi va ulardan foydalana olishi; - innovatsion iqtisodiyotga oid iqtisodiy statistik va hisobot ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, milliy tarmoqlar, hududiy va korxonada iqtisodiyotini o'zaro aloqadorligini tushunish ko'nikmalarga ega bo'lishi; - sanoat integratsiyasi, mamlakat sanoatining tarkibi, uning innovatsion rivojlanib borishi, sanoat tarkibiga kiruvchi tarmoqlarning innovatsion rivojlanishini hozirgi holati, ilmiy-innovatsion faoliyatning qonuniy va normativ huquqiy asosini bilish va qo'llash bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. <p>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish; • ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish.
--

<p>5.</p> <p>VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ismi topshirishi zarur.</p>	
<p>6.</p>	<p style="text-align: center;">ASOSIY ADABIYOTLAR</p> <p>1. Ergashev R.X. "Innovatsion iqtisodiyot" Darslik. Qarshi "Intellect" nashriyoti, 2023-yil.</p> <p>2. R.X.ERGASHEV, I.E.TURSUNOV, A.D.RAVSHANOV, A.B.QURBONOV "Innovation iqtisodiyot" - (darslik).-T.: "Iqtisod-moliya", 2020 yil</p> <p>3. Salixov S.A. va boshqalar. Innovatsion faoliyatni boshqarish.Darslik. Toshkent "Iqtisodiyot", 2013 yil.</p> <p>4. Ergashxodjayev Sh. Innovatsion marketing. Darslik. Toshkent "Cho'pon", 2014 yil.</p> <p>5. Akabirova D.N. Innovatsionnaya strategiya. Uchebnoye posobiye. Toshkent .Iqtisodiyot, 2011.</p> <p>6. Ishmuhamedov A.E. Innovatsionnaya strategiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, TDIU, 2007.</p> <p>7. Подсорин В.А. Экономика инноваций: учебное пособие для магистрантов по направлению "Экономика" -М.: МИИТ, 2012.-123 с.</p> <p>8. Кураков Л.П., Краснов А.Г., Назаров А.В. Экономика инновационные подходы: Учебное пособие.-М.:Гелиос, 2008.-600 с</p> <p style="text-align: center;">QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR</p> <p>1. Богатова Е.В. "Инновационная экономика": учебники, обучение. Москва-2014.</p> <p>2. Якушев А.А., Дубынина «Инновационная экономика» : учебники, обучение.Москва-2014</p> <p>3. Кукушина В.С. Социальная защита населения. Учебное пособие - М.: ИНФРАМ, 2007. - 321 с.</p> <p>4. Жукова М.А. Менеджмент в туристическом бизнесе. Учебное пособие - М.: КНО - РУС, 2005. - 192 с.</p> <p>5. Филипповский Е.Е. Шмарова Л.В. Экономика и организация гостиничного хозяйства. - М.: ФИС, 2005. - 176 с.</p> <p>6. Хамраева S.N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. -- Monografiya. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2017 – 256 b.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <p>1. http://www.lex.uz</p> <p>2. http://www.mineconomy.uz</p> <p>3. http://www.mf.uz</p> <p>4. http://www.stat.uz</p> <p>5. http://www.solliq.uz</p> <p>6. http://www.cbu.uz</p> <p>7. http://www.wordbank.org.</p> <p>8. http://www.ebrd.org.</p> <p>9. http://www.imf.org</p>

7	<p>Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi</p>
8	<p>Fan / Modul uchun mas'ul N.R.Xo'jaqulova - "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)</p>
9	<p>Taqrizchilar: R.X.Ergashev - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası professori, i.f.d. T.Ergashev - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Biznes va innovatsion menajment" kafedrası dotsenti, i.f.n.</p>